



KATTALARDA IELTS SPEAKING KO'NIKMASINI EGALLASHDAGI MUAMMOLAR

*Namangan davlat chet tillari instituti
Filologiya fakulteti 1-bosqich
talabasi*

Jurabayeva Umida Nosir qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada IELTS Speaking imtihoniga tayyorlanayotgan kattalar uchun asosiy nutqiy va psixologik to'siqlarni tahlil qilamiz. 112 nafar talaba ishtirokida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, gapirish davomida xato qilishdan qo'rqish (40.5%), perfektsionizm, ichki tarjima muammosi (31.3%) va grammatik kamchiliklar (54.1%) eng jiddiy to'siqlar ekanligi aniqlandi. Ushbu maqolada shunday muammolarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: IELTS Speaking, nutqiy xavotir, xato qilishdan qo'rqish, so'z boyligi yetishmasligi.

Kirish

Hozirgi rivojlanib borayotgan zamonda nafaqat yoshlar, balki kattalar (adult learners) ham til o'rganishmoqda. Ayniqsa, IELTS va CEFR kabi imtihonlarda o'zlarini sinab ko'rish ular uchun odatiy holga aylanib bormoqda. Lekin ushbu jarayonda kutilmagan to'siqlarga duch kelishmoqda. Bulardan biri nutqiy xavotirdir. Bu shunchaki hayajon emas, balki til o'rganuvchining maqsadli tilda (masalan ingliz tili) gapirish kerak bo'lganda his qiladigan asabiy holat bo'lib, muzlab qolish, baholanishdan qo'rqish va effektiv filtrga sabab bo'ladi. Natijada, o'quvchilar gapirishdan oldin xato qilib qo'yishlikdan qo'rqib, nutqlarini boshlasha olmaydi. 3-savol natijalari juda qiziqarli ma'lumotni ko'rsatdi: 40.5% talabalar kattalarda speaking muammosini "xato qilishdan uyalish" (ego barrier) bilan bog'lashadi. Bu perfektsionizmning yorqin ko'rinishidir. Katta yoshdagi o'rganuvchilar mukammal bo'lish uchun haddan tashqari o'zlarini talabchan qilib olishadi va natijada o'z natijalaridan qoniqishmaydi. Nutqiy xavotirni eng foydali usuli o'quvchining o'zi yo'l qo'ygan xatosini yo'l qo'ygan xatosini to'g'irlashi hisoblanadi, agar o'quvchi xatosini to'g'irlay olmasa, o'qituvchisi unga ko'maklashadi - deb yozadi Muhayyo Zaripovna Abdiyazova va Bahorgul Yusupovna Mametova o'zlarining maqolasida.

Tadqiqot doirasida Namangan davlat chet tillari instituti va boshqa ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida 112 nafar ishtirokchini qamrab olgan keng qamrovli so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma natijalari kattalarda



speaking ko'nikmasini rivojlantirishdagi asosiy to'siqlarni aniq ko'rsatib berdi.

So'rovnoma natijalariga ko'ra, talabalarning eng katta xavotiri bu fikrlarini yetarlicha "ilmiy" va akademik ifodalay olmaslikdir. 43.8% ishtirokchilar aynan shu omildan cho'chishini bildirishgan. Ikkinchi o'rinda 35.7% bilan grammatik xatolar sabab ball yo'qotish turibdi.

Bu ko'rsatkich ichki tarjima muammosi bilan bevosita bog'liq ekanligini 5-savol natijalari tasdiqlaydi: 31.3% talabalar o'zbekcha fikrlab, inglizchaga tarjima qilishni eng katta kompleks deb bilishadi.

Xatoga til o'rganuvchilarning reaksiya haqidagi savolda 35.1% talabalar "o'sha zahoti o'zimni tuzataman" (self-correction) deb javob bergan. Bu bir tomondan ijobiy holat bo'lsa, ikkinchi tomondan, nutq jarayonini uzib qo'yishi va pauzalarga olib kelishi mumkin. 27.9% talabalar esa xato qilganda duduqlanib qolishini va fikri chalkashib ketishini tan olgan. Bundan tashqari,

5-savol natijalariga ko'ra, 37.5% talabalar lug'at boyligining kamligini eng katta kompleks deb bilishadi. Xuddi (M.R.Ukrainshikova maqolasidan) Hatch va Brow ta'kidlaganidek " Vocabulary is the foundation to build languages which plays a fundamental role in communication ". (So'z boyligi muloqotda asosiy rol o'ynaydigan tillarni yaratish uchun asosdir.) Bu muammoga yechim esa so'z topolmaganda o'sha so'zni ta'riflab berishga (paraphrasing) harakat qilishliklari bilan ifodalanib, bu, asosan, ijobiy kommunikativ strategiya hisoblanadi. Biroq 36.6% talabalar hali ham "uhmm", "eee" kabi tovushlardan foydalanadi, bu esa fluency ko'rsatkichiga salbiy ta'sir qiladi. [1]

54.1% talabalar murakkab gaplar tuzishda adashishini tan olishi haqida so'rovnoma natijalarida keltiriladi. Asosan, present simple, present continuous, past simple, past continuous kabi zamonlar bilan chegaralanib qolishi esa murakkab gap tuzish muammosiga yaqqol sabab bo'la oladi. Ko'pchilik talabalar speaking baliga eng katta to'sqinlik sifatida murakkab grammatik tuzilmalarni ishlata olmaslikni ko'rsatishganliklari bilan so'rovnomamizda o'rin egallab turishmoqda.

Bu muammo tabiiy, chunki kattalar tizimli grammatikani o'rgangan bo'lsalar-da, uni nutqda qo'llashda qiynalishadi. Bu "bilish" va "qo'llay olish" o'rtasidagi farqdir. Bunday holatda esa daftarga qiyin tuzilmali zamonlardan foydalanib, gap tuzib, uni ko'proq gapirishga harakat qilish, iloji bo'lsa, sherik bilan yoki ko'zgu bilan ishlash ham ancha foyda keltiradi.

IELTS tizimidagi Part 2 savoliga ko'ra 2 daqiqalik mavzu yuzasidan gapirib berishda, eng katta muammo 1 daqiqadan keyin gap tugab qolishi sanaladi. Bu so'z boyligi va g'oyalarni rivojlantirish ko'nikmasining yetishmasligidan dalolat beradi. Shuning uchun ba'zilar mavzudan chetlashib ketishdan qo'rqishadi.



IELTS dagi Part 3 savollariga keladigan bo'lsak, 10-savolda 50% talabalar "o'rtacha, savolni tushunsam gapira olaman" deb javob bergan. Bu ijobiy ko'rsatkich, chunki ularning yarmisi bu bosqichdan qo'rqmasligini bildiradi. Biroq, 19.6% uchun bu juda qiyin, chunki falsafiy fikrlash talab qilinadi deb belgilagan. Bunday hollarda ko'proq namuna javoblarni o'qish, mavzu yuzasidan internetdan ma'lumot qidirish kabilar o'rganuvchiga biroz bo'lsa-da, Part 3 savollarida javob bera olish imkonini beradi. Lekin yechim yana so'z boyligi yetishmasligiga olib keladi, shuning uchun ham qaysi tilni o'rganishdan qat'iy nazar o'sha tilning so'zlarini ko'proq yodlash gapirish (Speaking) bo'limida o'quvchilar uchun katta poydevor vazifasini o'taydi. bunday hollarda esa so'zlarning guruh holatini yod olish kerak, jumladan, ta'limga oid yoki texnologiyaga oid so'zlar guruhi bir qator ko'rib chiqilsa, nur ustiga nur bo'lardi. Qolaversa, boshqa tomondan olib qaraganda, so'rovnomada natijalari orasida 49.1% talabalar notanish mavzu tushganda ham "mantiqsiz bo'lsa ham gapirishga harakat qilaman" deb javob bergan. Bu ajoyib kommunikativ strategiya! Chunki umuman gapirmaslikdan ko'ra, har qanday holatda ham gapirish yaxshiroq. 27.7% esa fikrini jamlash uchun uzoq pauza qilishini aytgan. 11-savol natijalariga ko'ra, 47.3% talabalar speaking ko'nikmasini "o'zim bilan o'zim gaplashaman" (mirror talk) orqali rivojlantirishmoqda. Bu yaxshi usul, ammo yetarli emas. Yuqorida keltirilgan fikrlarni hisobga olib, o'rgangan ma'qul.

Eng e'tibor qaratadigan qism Shadowing (soyadek ergashish) qismi hisoblanadi. Shadowing orqali til o'rganuvchi, nafaqat, talaffuzini yaxshilashi, balki yangi so'zlar, grammatikalarni o'rganishi mumkin. 37.5% talabalar kuniga 15 daqiqadan kam ingliz tilida audio tinglashadi. Yana 12.5% esa umuman eshitmasligini tan olgan. Bu talaffuz va eshitish (listening) ko'nikmalarining rivojlanmasligiga olib keladi. podcast yoki biror kishining nutqini tinglayotganda, birinchi navbatda mavzusiga e'tibor qaratish zarur, chunki har qanday sizga yoqmaydiga mavzu siz uchun hech qanday muhim kasb etmaydi. Shadowing esa eng zarurlardan bo'lgani sabab uni amaliyotda qo'llash uchun, avvalo o'zingiz yoqtirgan mavzuni tanlab oling-da istalgan vaqt oralig'ida tomosha qilsangiz bo'ladi. Ammo davomiylik ortgani sari vaqt oralig'ini ham ko'paytirish kerak. Masalan, avvaliga 5 daqiqalik video ko'rib, keyinchalik 30-daqiqagacha oshirish darkor. Bu orqali eshitish (listening), so'z boyligi (vocabulary), nutq (pronunciation) hamda omma oldida qanday turish madaniyatini oshirish mumkin.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, har kuni kamida 30-60 daqiqa ingliz tilida audio tinglash talaffuzni yaxshilashning eng samarali usullaridan biridir. Bizning so'rovnomada faqat 36.6% bu tavsiyaga amal qilayotgani ko'rsatilgan.

Qolaversa, 45.5% talabalar past ballni "tayyorgarlik yetishmasligi" bilan



bog'lashsa, yana 45.5% til o'rganuvchilar "imtihon paytidagi kuchli hayajon"ni sabab deb ko'rsatishgan. Bu deyarli teng taqsimlov bo'lib, psixologik omilning ham, tayyorgarlikning ham bir xil darajada muhim ekanligini ko'rsatadi.

Amaliy tavsiyalar

Yuqoridagi tahlillar va berilgan tavsiyalarga qo'shimcha ravishda til o'rganuvchilar uchun quyidagi tavsiyalarni beramiz:

1. Nutqiy xavotirni yengish uchun:

Har kuni 5-10 daqiqa "mirror talk" (o'zi bilan o'zi gaplashish) mashqini bajaring

Xato qilishni normal holat deb qabul qiling - 40.5% talablar xato qilishdan uyaladi, lekin xato - bu o'rganish jarayoni

Abdiyazova va Mametova ta'kidlaganidek, "Nutqiy xavotirni eng foydali usuli yo'l qo'ygan xatosini o'quvchining o'zi to'g'irlashi hisoblanadi" [3]

2. So'z boyligini oshirish uchun:

Har kuni 5-10 ta yangi idiomani o'rganing va ularni gaplarda ishlatib ko'ring

Paraphrasing ko'nikmasini rivojlantiring - so'z topolmaganda uni ta'riflab berishni o'rganing

Mavzular bo'yicha so'zlar guruhini o'rganing (masalan, ta'lim, texnologiya, muhit)

3. Grammatikani nutqda qo'llash uchun:

Murakkab gap tuzilmalarini alohida mashq qiling - 54.1% talabalar shu muammoga duch kelishmoqda

"Answer-Reason-Example" strukturasini qo'llang: javob bering, sababini tushuntiring, misol keltiring

4. Tinglash ko'nikmasini rivojlantirish uchun:

Kuniga kamida 30 daqiqa ingliz tilida podcast/news tinglang - hozir 37.5% talabalar podcast hamda shadowing tinglashmoqda.

Shadowing (soya) usulini qo'llang - eshitganingizni darhol takrorlang

Turli aksentlarni tinglang (britan, amerikan, avstraliya)

5. Imtihon strategiyalari:

IELTS imtihonidagi Speaking bo'lidagi Part 2 savolida 2 daqiqa gapirish uchun kamida 3-4 ta asosiy g'oya tayyorlang

Notanish mavzu tushganda vahimaga tushmang - 49.1% talabalar mantiqsiz bo'lsa ham gapirishni tanlagan, bu to'g'ri yondashuv hisoblanadi.

6. Muntazam mashq:

Speaking partner toping - so'rovnomasoslariga ko'ra 23.2% til o'rganuvchilar sherik hamda ko'zgu orqali til ko'nikmalarini shakllantirib kelishayotgani ko'rsatilgan.



Haftada kamida 3 marta real suhbat mashqini qiling
O'z nutqingizni yozib oling va tahlil qiling

Xulosa

112 nafar talaba ishtirokida o'tkazilgan ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kattalarda IELTS Speaking darajasining pastligi ko'p hollarda tilni bilmaslikdan emas, balki quyidagi omillardan kelib chiqadi:

1. Psixologik to'siqlar: 40.5% talabalar xato qilishdan uyalishni asosiy muammo deb bilishadi. Bu perfektsionizm va nutqiy xavotir bilan bog'liq.

2. Ichki tarjima muammosi: 31.3% o'quvchilar o'zbekcha fikrlab, inglizchaga tarjima qilishdan qiynalishadi. Bu nutq sekinlashishiga va pauzalarga olib keladi.

3. Grammatik qiyinchiliklar: 54.1% til o'rganuvchilar murakkab gaplar tuzishda adashishini tan olgan. Bu ularning oddiy gaplardan chiqib ketishda qo'rqishlarini anglatadi.

4. So'z boyligi yetishmasligi: 37.5% talabalar esa lug'at kamligini eng katta kompleks deb bilishadi. Bu Part 2 da 36% ning 1 daqiqadan keyin gap tugab qolishiga sabab bo'lmoqda.

5. Tinglash ko'nikmasining zaifligi: 37.5% talabalar kuniga 15 daqiqadan kam audio tinglashi tashvishli holat. Bu talaffuz va tinglab tushunish (listening) ko'nikmalarining rivojlanmasligiga olib keladi.

Biroq, ijobiy tendensiyalar ham bor:

49.1% til ixlosmandlari notanish mavzuda ham gapirishni davom ettirishga harakat qilmoqda - bu ajoyib kommunikativ strategiya

48.2% talabalar so'z topolmaganda paraphrasing qo'llamoqda - bu yuqori ball uchun muhim ko'nikma sanaladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, IELTS Speaking imtihonida muvaffaqiyatga erishish uchun nomzodlarda psixologik to'siqlarni yengishlari xato qilishni esa o'rganish jarayoni deb qabul qilishlari, muntazam mashq qilishlari, kognitiv strategiyalarni o'zlashtirishlari, lug'at boyligini oshirishlari, real muloqot tajribasini orttirishlari kabi ko'nikmalarni o'zlarida shakllantirishlari darkor.

Ushbu tavsiyalar va yondashuvlar o'quvchilardagi nutqiy xavotirni yengishga va xalqaro imtihon talablariga mos ravishda mantiqiy, ravon nutq shakllantirishga xizmat qiladi. Kelajakda kattalar uchun maxsus speaking klublari va psixologik qo'llab-quvvatlash dasturlarini tashkil etish maqsadga muvofiq deb hisoblayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI



1. Abdiyazova.M.Z. va Mametova.B.Y Nutqiy xavotirni bartaraf etishda o'qituvchi va talaba hamkorligi.[3]
2. Branden.K. (2006). Task-Based Language Education: From Theory to Practice. Cambridge University Press.[6]
3. Hatch.E va Brown.C (1995). Vocabulary, Semantics, and Language Education. Cambridge University Press.[1]
4. Kurbanova.M.B. (2023). Kattalarda perfektsionizmning til o'rganish jarayoniga psixologik ta'siri.[5]
5. Ukraimshikova.M.R. Ingliz tilini o'qitishda leksik kompetensiyani rivojlantirish masalalari.
6. Namangan davlat chet tillari instituti. (2026). IELTS Speaking muammolari bo'yicha 112 nafar talaba ishtirokida o'tkazilgan sotsiologik so'rovnoma natijalari.